ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

PAUSTOVSKIY HIKOYALARIDA SYUJET POETIKASI

Shadmanova Alyona Sergeyevna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
rus tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Adabiyotshunoslikda syujet poetikasi masalasi doimo dolzarb bo'lib kelgan. Chunki syujet – bu badiiy asarning nafaqat tashqi kompozitsion tuzilishi, balki inson ruhiyati va ijtimoiy-falsafiy mazmunning poetik shakli sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr rus adabiyotining yirik vakili Konstantin Georgiyevich Paustovskiy (1892-1968) hikoyalari bu borada o'ziga xos tajriba maktabini yaratdi. Uning hikoyalarida oddiy voqealardan boshlangan syujetlar asta-sekin badiiy umumlashma va falsafiy mazmun kasb etib, lirizm, romantizm va realizm unsurlarining uyg'unlashuvi orqali yangi poetik modelni vujudga keltiradi. Adabiyotshunos olimlar qayd etishlaricha, Paustovskiy hikoyalarida syujetning tashqi sodda oqimi ichki dramatizm va lirizm bilan boyigan bo'ladi. Masalan, V.Vinogradov Paustovskiy nasrida "badiiy tafsilotlarning lirizmi syujetni insoniy kechinmalarning metaforik manzarasiga aylantiradi", – deya ta'kidlagan. Shuningdek, A.M.Novikov Paustovskiy hikoyalarida "tabiat tasviri nafaqat fon, balki syujetning mazmuniy dinamikasini belgilovchi asosiy estetik komponent" ekanligini ko'rsatadi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qaraganda, Paustovskiy hikoyalarining syujet qurilishi Chexov an'analariga yaqin bo'lib, ammo undagi lirizm va poetik tasvir vositalari G'arb romantizmi hamda Sharq lirikasiga xos ohanglarni o'zida mujassam etadi. Shu sababli, mazkur maqolada Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi masalasi qiyosiy tipologik yondashuv asosida ilmiy tahlil qilinadi. Avvalo, syujet poetikasini tadqiq etish Paustovskiy ijodini faqat estetik zavq manbai sifatida emas, balki badiiy tafakkurning falsafiy darajasini belgilovchi nazariy fenomen sifatida baholash imkonini beradi. Bu borada L.Ginzburg "Syujetning poetik mohiyati yozuvchi dunyoqarashining eng barqaror qatlamlarini ifoda etadi"[1] degan fikrni ilgari suradi. Paustovskiy hikoyalarida ham syujet yozuvchining hayot, inson va tabiat haqidagi konsepsiyasining badiiy modeli sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, syujetning lirizm bilan uyg'unligi Paustovskiy ijodida yangi estetik paradigma shakllanishiga olib kelgan. U hikoyalarida voqeani bayon qilishdan ko'ra, voqelikni ruhiy idrok qilishga urg'u beradi. Shu bois tadqiqotchilar uning hikoyachiligini "liriko-epik model" sifatida baholaydilar. Bu jihat Paustovskiy ijodini nafaqat rus, balki jahon adabiyoti kontekstida ham muhim o'ringa chiqaradi. Bundan tashqari, Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasining tahlili zamonaviy qiyosiy adabiyotshunoslik metodlari yordamida olib borilganda, undagi umumiy va milliy xususiyatlar yanada ravshanlashadi. Masalan, uning hikoyalaridagi tabiat manzaralarining syujetga singdirilishi o'zbek adabiyotida Tog'ay Murod yoki Odil Yoqubov asarlarida kuzatiladigan ruhiy-falsafiy manzaralar bilan tipologik jihatdan qiyoslash imkonini beradi. Shu asosda, Paustovskiy hikoyalaridagi syujet poetikasi milliy adabiy jarayonni xalqaro kontekstda tahlil qilish uchun ham muhim metodologik asosdir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Paustovskiy hikoyalaridagi syujetning shakllanish jarayoni semiotik va struktural tahlil nuqtayi nazaridan ham alohida ilmiy qimmatga ega. Y.Lotmanning "Matnning semantik maydoni syujetning dinamikasini belgilaydi"[2], – degan nazariyasi Paustovskiy asarlariga tadbiq etilganda, uning hikoyalarida syujet faqat voqealar tizimi emas, balki ramziy belgilar majmui sifatida ham qaralishi lozimligi aniqlanadi. Bu jihat yozuvchi ijodining poetikasini semiotik-falsafiy darajada ochishga xizmat qiladi. Shuningdek, Paustovskiy hikoyalarida syujetning lirizm va falsafiy umumlashmalar bilan uyg'unligi, aslida, yozuvchining inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik haqidagi konsepsiyasidan kelib chiqadi. Shu bois uning hikoyalarida syujet – bu insoniy qadriyatlarning poetik modeli bo'lib, u orqali o'quvchi hayotning ma'naviy-falsafiy ma'nosini kashf etadi. Natijada syujet adabiy estetik tushuncha doirasidan falsafiy gnoseologik hodisa darajasiga ko'tariladi. Nihoyat, Paustovskiy hikoyalarini qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish, ayniqsa, Sharq mumtoz adabiyotidagi lirizm va G'arb modernizmiga xos ruhiy tafsilotlarni tahlil qilishda muhimdir. Chunki

[1] Гинзбург, Л. Я. *О психологической прозе.* – Л.: Художественная литература, 1977. – С. 48.
[2] Лотман, Ю. М. Анализ художественного текста. – Ленинград: Просвещение, 1972. – С. 91

Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi ana shu ikki adabiy an'ananing o'ziga xos sintezini ifodalaydi. Shu xususiyat uning asarlarini nafaqat milliy, balki transmilliy badiiy meros darajasiga ko'taradi.

Paustovskiy hikoyalarida syujet voqealar tizimidan ko'ra ko'proq inson ruhiyati va falsafiy umumlashmalarning ifoda vositasi sifatida shakllanadi. Ya'ni, yozuvchi voqeani tashqi shaklda bayon etish bilan cheklanmaydi, balki uning ortida yashiringan ma'naviy-falsafiy mazmunni ochishga intiladi. Bu jihatdan Paustovskiy hikoyachiligini "liriko-falsafiy syujet" modeli sifatida baholash mumkin. Masalan, "Arava" hikoyasida oddiy arava detali syujetning tashqi elementidek tuyuladi, biroq aslida u hayotning og'irligi, mashaqqatlari va davomiyligining ramziy belgisi sifatida talqin qilinadi: "Arava g'ichirlardi, ammo bu g'ichir-g'ichirda qishloq hayotining o'zi – og'ir va bitmas-tuganmas hayot jaranglardi."[1] Bundan ko'rinadiki, yozuvchi uchun oddiy predmetning o'zi ham falsafiy umumlashmaga ega bo'lishi mumkin. Aravaning "g'ichir-g'ichir" tovushi voqeani bayon qilish uchun fon emas, balki hayotiy haqiqatni, qishloq turmushining ramziy ifodasini ifodalovchi semantik markaz sifatida ishlatiladi. V.Vinogradov ta'kidlaganidek, Paustovskiy hikoyalarida "tafakkur va tasvirning lirizmi syujetni voqealar oqimidan chiqib, inson kechinmalarining poetik modeliga aylantiradi".[2] Demak, yozuvchi uchun syujet – bu voqealar ketma-ketligidan ko'ra ko'proq inson qalbi va ongining estetik shakli. Paustovskiyning bunday yondashuvi adabiyotdagi klassik realistik an'analardan farq qilib, voqealarning tashqi oqimini emas, balki ichki mazmunini poetiklashtiradi. Shuningdek, syujetning falsafiy mohiyatini ochishda yozuvchi tabiat va inson munosabatidan keng foydalanadi. Paustovskiy qahramonlari ko'pincha oddiy hodisalar – yomg'ir, shamol, dengiz, arava tovushi orqali hay otning mohiyati haqida o'ylashga majbur bo'ladilar. Bu jihatdan uning syujet qurilishi ekzistensial falsafaning adabiy ifodasi bilan yaqinlik kasb etadi. Masalan, "Arava" hikoyasida qishloq hayoti mashaqqatlarining ramziy manzarasi Chexov nasrida uchraydigan "oddiy tafsilot orqali umumiylikni ochish" usuli bilan uyg'unlashadi, ammo Paustovskiyda bu tafsilot lirizm va poetik mushohada bilan boyitilgan.

Syujetning bunday falsafiy yo'nalishda shakllanishi uni faqat estetik emas, balki gnoseologik hodisaga ham aylantiradi. Chunki Paustovskiy hikoyalarida voqealar oqimi orqali insonning mavjudlik haqidagi bilimlari, uning hayot haqidagi tasavvurlari va ma'naviy qadriyatlari poetik shaklda namoyon bo'ladi. L. Ginzburgning qayd etishicha, "syujetning poetik mohiyati yozuvchi dunyoqarashining barqaror falsafiy qatlamlarini ifoda etadi"[3] Shu asosda aytish mumkinki, Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi voqelikni bevosita tasvirlashdan ko'ra, uni inson ruhiyatida qayta yaratish jarayoni sifatida xizmat qiladi. Tabiat tasvirlari ham Paustovskiy hikoyalarida nafaqat voqealarning tashqi fonini belgilovchi dekorativ unsur, balki syujetning semantik markazi, dramatik rivojning katalizatori va qahramon ruhiyatini ochuvchi estetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchining tasviriy mahorati shundaki, u tabiat manzaralarini mustaqil estetik birlik sifatida emas, balki syujet dinamizmini harakatga keltiruvchi kuch sifatida ishlatadi. Shu sababli Paustovskiy hikoyalarida tabiat poetikasi voqelikni tasvirlash bilan bir qatorda falsafiy mazmun kasb etadi. "Qora bug'oz" hikoyasida cho'l va dengizning haybatli manzarasi oddiy peyzaj detali emas, balki insoniy jasorat va irodani sinovdan o'tkazuvchi poetik maydon sifatida xizmat qiladi: "Qora bug'oz ulkan temirchi ustaxonasidek shovullardi, go'yoki u yerda tabiatning ko'rinmas kuchlari mehnat qilayotgandek."[4]. Ushbu parchadan ko'rinadiki, tabiat hodisasi – shovullayotgan dengiz – syujetda dramatik vaziyatni kuchaytiruvchi, qahramonning ichki kechinmalarini fon emas, balki faol shakllantiruvchi omilga aylanadi. Dengizning "ulug'vor shovqini" insoniyat taqdirini belgilovchi kosmik kuch sifatida talqin qilinadi. A.M.Novikov bu xususiyatni tahlil qilar ekan, "Paustovskiy nasrida tabiat tasviri syujetning semantik markazi sifatida voqelik va ruhiyatni birlashtiradi" deya ta'kidlaydi[5]. Bu fikr bejiz emas, chunki yozuvchi hikoyalarida tabiat tasviri qahramonlarning ruhiy inqirozini yoki ichki uyg'onishini ifodalovchi metaforik kod vazifasini bajaradi.Y.Lotman nazariyasiga ko'ra, matnning semantik maydoni syujetni ramziy darajaga ko'taradi[6]. Paustovskiyda ham tabiat manzaralari syujetni faqat realizm doirasida emas, balki ramziy-falsafiy qatlamlarda ham ochib beradi. Masalan, "Meshchanlar" hikoyasida yomg'ir tasviri oddiy meteorologik hodisa emas, balki oilaviy munosabatlarning tarangligi va qahramonlarning ruhiy beqarorligini ifodalovchi poetik detaldir. Shuningdek, Paustovskiy tabiat poetikasini lirizm va dramatizmning uyg'unligini ta'minlov-

[1] Паустовский, К. Г. Повести и рассказы. – Москва: Художественная литература, 1983. – С. 112
[2] Виноградов, В. В. О языке художественной прозы. – Москва: Наука, 1971. – С. 89
[3] Гинзбург, Л. Я. О литературном герое. – Ленинград: Художественная литература, 1979. – С. 57
[4] Паустовский, К. Г. Повести и рассказы. – Москва: Художественная литература, 1983. – С. 214
[5] Новиков, А. М. Русская проза XX века: структура и поэтика. – Санкт-Петербург: Филологический факультет, 1998. – С. 143
[6] Лотман, Ю. М. Анализ художественного текста. – Ленинград: Просвещение, 1972. – С. 102

chi vosita sifatida qo‘llaydi. Tabiat manzaralari hikoya voqealarining kulminatsion nuqtalarida paydo bo‘lib, dramatik vaziyatni kuchaytiradi yoki qahramonlarning ichki dunyosini yoritadi. Shu ma’noda, tabiat tasvirlari syujet kompozitsiyasining “energetik markazi” bo‘lib xizmat qiladi.

Qiyosiy tipologik yondashuvda Paustovskiy hikoyalaridagi tabiat poetikasini Sharq adabiyotidagi tabiat falsafasi bilan ham bog‘lash mumkin. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi tabiat manzaralari qahramonlarning ruhiy iztiroblari bilan uyg‘unlashgani kabi, Paustovskiy hikoyalarida ham tabiat inson qalbining ichki mushohadasiga aylanadi. Bu jihatdan uning nasri nafaqat rus realizmi an’analariga, balki sharqona lirizmga ham yaqin turadi. Paustovskiy hikoyachiligining eng muhim xususiyatlaridan biri lirizm va dramatizmning bir-birini to‘ldiruvchi tarzda uyg‘unlashuvidir. Yozuvchi uchun voqea – bu nafaqat tashqi voqeiylikni bayon etuvchi birlik, balki inson qalbi va ruhiy dunyosining dramatik tarangligini aks ettiruvchi badiiy shakldir. Shu sababli Paustovskiy hikoyalarida oddiy hayotiy tafsilotlar lirik ohang bilan yoritilib, dramatik mazmun kasb etadi. “Meshchanlar” hikoyasi buning yorqin misolidir. Hikoyada oddiy oilaviy vaziyat insoniy qadr-qimmat, axloqiy tanlov va ijtimoiy mas’uliyat muammolari bilan bog‘lanadi: “Go‘yoki oddiy, arzimas narsa inson vijdoni hal qilinadigan bir drama darajasiga ko‘tarilardi.”[1]. Ushbu misoldan ko‘rinadiki, Paustovskiy voqealarning tashqi oddiyligidan ichki dramatizmni yaratadi. Oddiy “mayda-chuyda” tafsilot lirik ohangda tasvirlanib, insoniy vijdonning hal qiluvchi mezoniga aylanadi. Bunday poetik yondashuv Chexov hikoyachiligi bilan muayyan o‘xshashliklarga ega bo‘lsa-da, Paustovskiyda lirizmning kuchliroq sezilishi uning poetikasini o‘ziga xos qiladi. L.Ginzburg bu xususiyatni nazariy jihatdan quyidagicha izohlaydi: “Syujetning lirizm bilan uyg‘unligi yozuvchi dunyoqarashining eng barqaror qatlamlarini aks ettiradi”[2]. Ya’ni, lirizm Paustovskiy asarlarida voqeani subyektiv idrok bilan to‘ldirib, dramatik voqeani inson qalbining falsafiy tajribasiga aylantiradi. Shu ma’noda, Paustovskiy hikoyalarida lirizm va dramatizm bitta poetik tizimning ikki qutbi sifatida namoyon bo‘ladi. A.D.Mixaylovning fikricha, “Paustovskiy hikoyalarida lirizmning kuchayishi dramatik voqealarni yumshatmaydi, balki ularga estetik chuqurlik baxsh etadi”[3]. Darhaqiqat, yozuvchining hikoyalarida dramatik vaziyatlar ko‘pincha lirizm bilan yengillashadi va shu orqali o‘quvchida ham ruhiy iztirob, ham estetik zavq uyg‘otadi. Bundan tashqari, lirizm va dramatizm uyg‘unligi Paustovskiy hikoyalarini qiyosiy adabiyotshunoslik kontekstida ham muhim obyektga aylantiradi. Masalan, Stefan Sveyg hikoyalaridagi dramatik keskinlik Ernest Xeminguey hikoyalaridagi minimalizm bilan uyg‘unlashsa, Paustovskiyda bu dramatik keskinlik lirizm bilan yo‘g‘rilgan. Bu jihatdan uning hikoyachiligi Sharq adabiyotidagi lirik-epik an’analarga ham yaqinlashadi. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi ayrim epizodlarda oddiy tafsilotlarning dramatik kuch kasb etishi Paustovskiy nasridagi lirizm va dramatizm uyg‘unligini eslatadi. Shu tarzda aytish mumkinki, Paustovskiy hikoyalarida lirizm va dramatizm bir-biridan ajralmas badiiy birlik sifatida mavjud bo‘lib, ular syujetni nafaqat voqealar ketma-ketligi, balki ruhiy-intellektual jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu jihat yozuvchi ijodini jahon hikoyachiligi kontekstida alohida mavqega ko‘taradi.

Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasining o‘ziga xosligi uni nafaqat rus, balki jahon adabiyotidagi yirik hikoyachilik an’analari bilan qiyoslash imkonini beradi. Bunday qiyosiy tipologik yondashuv syujetning universal badiiy qonuniyatlarini aniqlashga, shu bilan birga Paustovskiy nasrining milliy-estetik o‘ziga xosligini ham ochishga xizmat qiladi. Chexov hikoyalarida syujetning ko‘pincha “ochiq final” tamoyiliga asoslanganligi ma’lum: voqealar nihoyasizlik holatida tugaydi, o‘quvchiga esa badiiy tafakkurda yakun yasash imkoniyati qoldiriladi. E.Heminguey nasrida esa “subtekst” va minimalizm poetikasi ustuvorlik qiladi: u voqealarni tashqi tafsilotlar bilan cheklab, dramatik mazmunni yashirin qatlamlarga joylaydi. Stefan Sveyg hikoyachiligida esa psixologik dramatizm markaziy o‘rinda bo‘lib, syujet asosan inson ongining ziddiyatli jarayonlarini ochishga xizmat qiladi.

Paustovskiy hikoyalarida yuqoridagi uch an’ananing barchasidan muayyan unsurlar topish mumkin bo‘lsa-da, uning poetikasi ularni takrorlamaydi. Aksincha, yozuvchi lirizm va tabiat poetikasini syujetning semantik markaziga olib chiqib, o‘ziga xos uslub yaratadi. Paustovskiy hikoyalarida voqea oddiy tafsilot orqali yoritiladi, biroq bu tafsilot lirizm bilan to‘yingan bo‘lgani uchun u falsafiy umumlashmaga aylanadi. Bu jihat uni Chexov realizmidan farqlaydi; Heminguey minimalizmidan farqli ravishda Paustovskiy tafsilotni qisqartirmaydi, balki uni badiiy ohangdorlik bilan boyitadi; Tsveygning psixologik dramatizmiga yaqin bo‘lsa-da, Paustovskiy ruhiy inqirozni tabiat poetikasi orqali yoritadi. Y.Lotman nazariyasiga ko‘ra, “matnning semantik maydoni syujetning ramziy o‘lchamlarini belgilaydi”[4]. Bu

[1] Паустовский, К. Г. Повести и рассказы. – Москва: Художественная литература, 1983. – С. 156.
[2] Гинзбург, Л. Я. О литературном герое. – Ленинград: Художественная литература, 1979. – С. 57
[3] Михайлов, А. Д. Поэтика русской литературы XX века. – Москва: Высшая школа, 2002. – С. 119
[4] Лотман, Ю. М. Анализ художественного текста. – Ленинград: Просвещение, 1972. – С. 102

nazariy yondashuv Paustovskiy hikoyalariga tadbiq etilganda, uning syujeti voqealar tizimi emas, balki ramziy-belgilar majmui sifatida ko‘rinadi. Masalan, “Qora bug`oz” hikoyasida dengizning shovqini nafaqat tabiat hodisasi, balki inson va tabiat o‘rtasidagi abadiy kurashning belgisi sifatida talqin qilinadi. Shu tariqa, syujet voqealar dinamikasidan chiqib, falsafiy ramzlar tizimiga aylanadi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan, Paustovskiy hikoyalaridagi syujet poetikasi Sharq adabiyotiga ham muayyan yaqinlik kasb etadi. Masalan, Cho‘lpon yoki Abdulla Qahhor hikoyalarida oddiy tafsilotlar orqali katta ma’naviy mazmun berilishi Paustovskiy uslubiga tipologik jihatdan yaqin turadi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz”ida tabiat va ruhiyat uyg‘unligi, Qahhor hikoyalarida esa oddiy tafsilotlarning axloqiy-falsafiy umumlashmaga aylanishi Paustovskiy hikoyachiligidagi liriko-dramatik uslub bilan qiyoslanishi mumkin. Shu ma’noda, Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi transmilliy badiiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi: u rus realizmi va lirizmining eng yaxshi an’analarini o‘zida mujassam etgan holda, G‘arb modernizmi va Sharq liriko-falsafiy an’analari bilan hamohanglik kasb etadi. Bu jihat yozuvchini jahon adabiyotida alohida poetik maktab egasi sifatida talqin qilishga asos bo‘ladi.

Rezyume. Mazkur maqolada Konstantin Georgiyevich Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasining badiiy va falsafiy mohiyati tahlil qilinadi. Syujetning kompozitsion strukturalari, dramatik bosqichlari hamda tabiat tasvirining estetik funksiyasi murakkab poetik birlik sifatida ko‘rib chiqiladi. Paustovskiy hikoyalarida voqealar oqimining tashqi soddaligi ostida ichki lirizm, inson ruhiyatining nozik qatlamlari va ma’naviy-estetik iztiroblar mujassam ekanligi ilmiy asosda ochib beriladi. Tadqiqotda qiyosiy adabiyotshunoslik metodlari qo‘llanib, syujet poetikasining Sharq va G‘arb adabiyoti bilan tipologik aloqalari hamda ma’naviy umumlashmalari yoritiladi.

Resume. The article explores the artistic and philosophical dimensions of plot poetics in the short stories of Konstantin Georgievich Paustovsky. It examines the compositional structures, the dramatic stages of narrative development, and the aesthetic function of landscape descriptions as integral poetic elements. The study demonstrates that beneath the apparent simplicity of the storyline lies a profound lyricism, subtle psychological depth, and spiritual-aesthetic tension. Employing comparative literary methodologies, the research highlights the typological intersections of Paustovsky’s plot poetics with both Eastern and Western literary traditions, revealing its universal artistic implications.

Резюме. В статье исследуется художественная и философская сущность поэтики сюжета в рассказах Константина Георгиевича Паустовского. Рассматриваются композиционные структуры, драматические этапы развития повествования, а также эстетическая функция пейзажных описаний как сложного поэтического единства. Научный анализ выявляет, что за внешней простотой событийного ряда скрывается глубокий лиризм, тонкие психологические состояния и духовно-эстетические переживания. С использованием методов сравнительного литературоведения освещаются типологические связи поэтики сюжета с восточной и западной литературной традицией, а также её универсальные художественные импликации.